

BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN  
FOYDALANISH

**Toshpo'latova Mohira G'ulom qizi**  
**Guliston davlat insitituti magistranti**

**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinf dars jarayonlarini yanada samarali o'tkazish, darsni sifatli qilish o'quvchilardada vatanga ota onaga mexr muhabbat uyg'otish ta'lim shaklini keng o'rganish hamda ularni tatbiq qilish maqsadida pedagogik texnologiyalar turli xil didaktik o'yinlardan foydalanish. Ularni dars jarayonida qo'llash orqali dars mohiyatini ochish o'quvchilarda yashirin qobiliyatlarni yuzaga chiqarish

**Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiya, ta'lim, muammoli vaziyat, ta'lim metodi, muammoli ta'lim, o'yinlar savodxonlik, zamonaviy usullar.

Hozirgi kunda ta'lim sohasida erishilgan yutuqlami saqlagan holda, bir xillikdan, bir qolipga tushib qolishdan saqlanmoq zarur. Ta'limning kishi xotirasini rivojlantirishga asoslangan turidan inson tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, o'quvchilar egallagan bilimlarni amaliyotda qo'llash, ularda amaliy ko'nikma va malakalar hosil etishga qaratilgan turiga o'tishga harakat qilish shu kunning talabi. Shunga erishilsagina vatanimiz kelajagi bo'lgan yosh avlod tarbiyasi oldiga qo'yilgan vazifa oqilona hal etilishi mumkin. Maktab davrida bolaning savodi chiqishi bilan birgalikda uning dunyoqarashi shakllanib, fikrlash doirasi kengayib boradi. Bolalarning bilimni rivojlantirishda turli xil o'yinlardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Bolalar o'yinlar orqali o'z bilimlarini mustahkamlab oladilar. ularni o'rganib oladilar. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar ta'lim sifatini yanada oshirish, bilish jarayonining muvafaqqiyatli boshqarilishiga turtki bo'ladi. Didaktik o'yinlar boshlang'ich ta'limning keyingi bosqichlarida ham bolalarning bilimni rivojiga turtki bo'lishi mumkin. Dars jarayonida o'zlashtirishi past o'quvchilarning bilimni oshirishga bu o'yinlar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun didaktik o'yinlar bilim olishning faollashtiruvchi ish turlaridan biri bo'lib, o'quvchilarda mustaqil tafakkur, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantiradi. O'quvchilarning o'qish darslariga qiziqishini o'stiruvchi vositalardan biri didaktik o'yin hisoblanadi. O'yinning maqsadi ta'lim olishga, fanga, kitobga qiziqish uyg'otishdir. Didaktik o'yin bolalarda bilish jarayoniga jonli qiziqish uyg'otadi va ma'lumotlarni qabul qilishga yordam beradi. Bu kabi o'yinlar bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirilishiga, chuqurlashtirilishiga, tartibga solishga,

qiziqish va qobiliyatlarini rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. O'z navbatida bu o'quvchilarda go'zal va boy ona tilimizdan g'ururlanish, axloqiy qadriyatlarimizni e'zozlash kabi sifatlarni shakllantiradi. O'yin elementlari didaktik vazifalarni bolalardan yashirishga xizmat qiladi, shu tariqa ular uchun qiyin bo'lgan bilim olish jarayonini yengillashtiradi. Ta'limiy mazmunga ega bo'lgan o'yinlardan, avvalo, mavzuga oid oddiy qiziqarli savol-javoblardan darsning ma'lum qismida foydalanish lozim. Shu tarzda boshqotirma, tez aytish kabi o'yinlar muntazam o'tkazib turilsa, o'quvchilarda ma'lum bir ko'nikmalar to'planib boradi. Shunga ko'ra o'quvchilar egallashi shart bo'lgan ko'nikma va malakalar: tasvirlay olish, tushuntira olish va bashorat qila olish qobiliyatini hosil qiladi. Dars jarayonida o'yinlarni to'g'ri tashkil etish va o'tkazishda vazifalar, qoidalar va ularning natijalarini tahlil qilish bosqichlarini aniq belgilab olish lozim

Beruniy o'z asarlarida yosh avlodga bilim berishda turli xil qulay, o'quvchi uchun tushunarli bo'lgan usullardan foydalanishni tavsiya etadi. «Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar asarida» Beruniy dars samaradorligini oshirish bolaning xotirasini rivojlanishi bolaning erkin fikrlashini oshirish usullarini izlashni ta'kidlagan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad bolalarni zeriktirmaslik turli usullar bilan uning dunyoqarashini, bilim darajasini kengaytirish. Beruniy bundan tashqari didaktik o'yinlar orqali bola zerikish uyg'otmasligi lozim deydi. Ta'lim sifatini har taraflama muvafaqqiyatli qilishimiz uchun didaktik o'yinlardan foydalanishimiz lozim. Bunday usullarni to'g'ri tanlay bilish orqali dars jarayonida samarali natijalarga erishishimiz mumkin. Didaktik o'yinlardan foydalanishda kafolatli natijani ko'zlab, zamonaviy hamda samarali yo'llarni tanlab, biri har bir narsa va hodisaga majmua sifatida yondoshish zarur. Aks holda faoliyat an'anaviylikni ifoda etib qoladi. Shu nuqtai nazardan har qanday didaktik o'yin tamoyillari markaziy o'rinda turishi kerak. Shundagina faoliyat zamonga mos bo'lib, jamiyat ijtimoiy buyurtmasini sharaf bilan bajarish mumkin. O'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda ham an'anaviy usullardan farqli o'laroq, yangicha pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirish va ta'lim jarayonida qo'llash zamon talabidir. Dars jarayonida yangicha muhitni shakllantirish, zamonaviy ko'rgazmalardan, interfaol metodlardan foydalanib mazmunli olib borish zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilari boshqarishga moyil, qiziquvchan, ta'sirchan bo'lganliklari uchun ham o'qituvchidan o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lgan, darsni oson o'zlashtirishlarini, bilimlarni mustahkam o'rganishni kafolatlaydigan metodlarni tanlashi va foydalanishi talab etiladi. Didaktik o'yinlardan foydalanishda ta'limning mazmunini belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchilarning bilimlarni keng egallashi va ma'naviy

fazilatlarni o'zlashtirishga yunaltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ta'limning natijasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash ularni ob'ektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining didaktik o'yinlar asosida tashkil etilgan o'qish darslari jarayonida erkin va mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi. Mustaqil fikrlash qobiliyatining shakllanishi natijasida, o'quvchilar atrof olamdagi, jamiyatdagi qonunlarni, shuningdek, asardagi ijobiy va salbiy qahramonlar orqali lar insoniy fazilatlarni anglash, bilimlarni chuqur o'rganish, keng fikrlash, tegishli qarorlar qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak o'qituvchining yangiliklari orqali yosh avlodni yanada bilimi qilish ko'zlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: «Fan» nashr., 2017.
2. G'afforova T. va boshqalar. Ta'limning ilg'or texnologiyalari. - Qarshi: 2013.
3. Saidahmedov N. Pedagogik amaliyotda matematika darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash. Toshkent: «Fan» nashr., 2017.
4. Qizi K. S. S. FORMATION OF NATURE AWARENESS SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS //International Scientific and Current Research Conferences. – 2023. – C. 43-45.
5. Karimova Sevara “Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students”In volume 19, of Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching (EJLAT) April 2023.
6. Qizi, K. S. S. (2023, September). FORMATION OF NATURE AWARENESS SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 43-45).